

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	62
Olikulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedrasi dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumatalibovich , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmuddin qizi , asisstant	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinovna , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна , PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganov , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdag'i yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 Berdiev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi253 Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari258 Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish263 G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish269 Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari284 Qurbanova Shaxrinoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar288 Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari292 Mamirjon Jalollidinov , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала297 Муминов Шохжакон Суюнович , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана302 Муятдинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 Тажимуратов Умид Рузматович , Бахриев Иброхим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойберганович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузмат Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili333 Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 Tosheva Ziroat Aliqul qizi	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uзbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
Tursun Muxitovich Ahmedov , i. ф. д., prof.; Gavhar Rustamovna Xidirova , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike	359
Urinov Bobur Nasilloevich , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilagini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullu Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA DIVIDEND SIYOSATI VA TENDENSIYALARI TAHLILI

Temirov Abdulaziz Alimjanovich
TDIU "Koroprativ boshqaruv" kafedrasi dotsenti, i.f.n.



Annotatsiya: Maqolada muallif tomonidan dividend siyosati, uning korporativ boshqaruvdagi o'rni yoritilgan, dividend siyosatini shakllantirish masalalari, dividendlarni to'lash shakllari tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili faoliyat ko'ssatayotgan ayrim tijorat banklari misolida ochib berishga harakat qilingan. O'rganishlar asosida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: bank, korporativ boshqaruv, dividend, dividend siyosati, dividend strategiyasi, aksiyadorlar, qaror, to'lovlar, qayta investitsiyalash, moliyalashtirish.

Abstract: In the article, the author highlights the dividend policy, its role in corporate governance, discusses the issues of the formation of dividend policy, studied the forms of dividend payment. The analysis of trends in the dividend policy in commercial banks of the Republic of Uzbekistan was also carried out on the example of some domestic banks. Based on the research, the author developed recommendations and suggestions.

Key words: bank, corporate governance, dividends, dividend policy, dividend strategy, shareholders, decision, payments, reinvestment, financing.

Аннотация: В статье автором освещена дивидендная политика, ее роль в корпоративном управлении, рассмотрены вопросы формирования дивидендной политики, изучены формы выплаты дивидендов. Также был проведен анализ тенденций дивидендной политики в коммерческих банках Республики Узбекистан на примере некоторых отечественных банков. На основе исследований автором были разработаны рекомендации и предложения.

Ключевые слова: банк, корпоративное управление, дивиденды, дивидендная политика, дивидендная стратегия, акционеры, решение, выплаты, реинвестирование, финансирование.

KIRISH

Korporativ boshqaruvning muhim elementlaridan biri bo'lib kompaniyalarning bozor qiymatini maksimal darajada oshirish uchun iste'mol qilinadigan va kapitalizatsiya qilinadigan foyda o'ttasidagi nisbatlarni optimal-lashtirishga qaratilgan dividend siyosati hisoblanadi. Kompaniyaning maqsadlariga va joriy hamda prognozli vaziyatiga qarab, kompaniyaning daromadlari qayta investitsiyalanishi, taqsimlanmagan foyda uchun hisobdan chiqarilishi yoki dividendlar shaklida to'lanishi mumkin.

Moliya bozorining muhim instituti hisoblangan tijorat banklari iqtisodiyotni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bilan bir vaqtida o'z faoliyatları uzluksizligi va kengayib borishlari uchun ham muntazam ravishda resurslar jalb qilishlari talab etiladi. Natijada tijorat banklarining depozit siyosati, kredit siyosati bilan bir vaqtida dividend siyosati masalasi ham alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki tijorat banklari oldida turgan kapital yetariligi bilan bog'liq jiddiy talablar xususiy kapital miqdorini ham muntazam oshirib borshi zaruratini yuzaga keltirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlar bilan bog'liq operatsiyalar, dividend siyosatini ishlab chiqish va uni takomillashtirish masalalari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Dividendlar va dividend siyosatiga oid adabiyotlar tahlilini o'tkazish natijasida turli tadqiqotlarda mazkur masalaning alohida jihatlari ko'rib o'tilgan. Iqtisodchi olimlar M. Miller va F. Modilyani tomonidan yaratilgan dividendlar irrelevantligi nazariyasiga ko'ra, "Dividend siyosati aksiyalar bahosiga yoki uning aksiyadorlik kapitalining qiymatiga ta'sir qilmaydi" [2].



Nazariya mualliflari mukammal bozor sharoitida investorlar faqat umumi daromadlilikdan manfaatdor bo'ladi, uning alohida shakllaridan emas deb hisoblaydilar. M. Gordon^[3] va J. Lintner^[3] o'z asarlarida "Dividendlar to'lash (koeffitsiyenti) oshgani sayin, aksiyadorlik kapitalining qiymati (daromadliliqi) kamayib boradi, chunki kapital qiymatining oshishi shaklida daromad olish dividendlar shaklida daromaddan ko'ra riskka ko'proq tortiladi" deb hisoblashadi. Ularning fikricha, har qanday dividend siyosati kompaniyaning qiymatiga va uning egalar farovonligiga ta'sir qilmasdan bir xil natijalarga olib keladi.

R. Litsenberger va K. Ramasvami tomonidan ilgari surilgan nazariyaga muvofiq, "Aksiyadorlar uchun dividend daromadlari emas, balki kapitalizatsiya qilingan daromadlar ustuvor ahamiyatga ega, bunga esa kapitalizatsiya qilingan daromadlar olingan dividendlarga qaraganda kamroq miqdorda soliqqa tortilishi hisoblanadi"^[4].

S. Ross va S. Bxattacharning signal nazariyasiga ko'ra, "Dividend siyosati orqali boshqaruv investorlarga korxonaning holati to'g'risida signal beradi, agentlik nazariyasida esa M. Jensen va U. Mekling turli boshqaruv guruhlari, korxona aksiyadorlari va kreditorlar o'tasidagi manfaatlar to'qnashuvlari dividend siyosati orqali bo'lishini ifodalaydilar^[5].

Dividend siyosatini aniqlab beruvchi asosiy omillardan biri bo'lib qarz va uning sifati hisoblanadi. Agar kompaniya ochiq bozorda ommaviy ravishda qarz olishga kirishsa, u holda Y. Fedorova va I. Lukasevichga ko'ra "Milliy kompaniyalarda dividend olish maqsadida ular faoliyatiga investitsiya kiritish ommaviylashmoqda"^[6].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim S. Elmizayev tomonidan dividendlar iqtisodiy mohiyati, oqilona dividend siyosati orqali aksiyadorlik jamiyatlari erishish mumkin bo'lgan natijalar, dividendlar tahlili masalalari atroficha tadqiq qilingan^[7]. N. Sherqo'ziyeva esa o'z maqolasida aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruv tizimida dividend siyosatining rolini tadqiq qilib, dividend siyosati bo'yicha asosiy nazariyalar, dividend siyosati prinsiplari, dividendlarni e'lon qilish va to'lash tartibi kabilar milliy va xalqaro tajriba asosida atroficha o'rganilgan^[8]. Boshqa bir iqtisodchi olim A. Temirov esa O'zbekiston Respublikasida kompaniyalar tomonidan tanlangan dividend siyosatini ishlab chiqishiga bir qator omillar guruhlari ta'sir qilishini ta'kidlagan^[9].

Dividend siyosatidagi sezilarli o'zgarishlarga qaramasdan, u ko'p tadqiqotlar va munosabatlarning obyekti bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklarida dividend siyosati va uning tendensiyalarining tahlili tashkil etish va tizimlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, ta'rif va tushunchalarning shakllanishini qiyosiy solishtirish, ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dividend siyosatining maqsadi iste'mol qilinadigan va kapitallashtirilayotgan foya qismlari o'tasidagi maqbul nisbatni belgilashdan iborat bo'lib, bu kelgusida aksiyadorlik jamiyatining strategik rivojlanishini ta'minlash, kompaniya bozor qiymatini maksimal darajada oshirish, aksiyalarning bozor qiymatini oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni aniqlash imkonini beradi.

Dividend siyosatini shakllantirishning eng muhim bosqichi bo'lib dividendlarni to'lash shaklini tanlash hisobladi. Bunday shakllarning asosiyлари esa quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval: Dividendlarni to'lash shakllari*

No	Dividendlarni to'lash shakllari	Qisqacha mazmuni
1	Dividendlarni pul bilan to'lash	Bu dividend to'lovlarini amalga oshirishning eng sodda va eng ko'p tarqalgan shakli bo'lib hisoblanadi
2	Dividendlarni aksiyalar bilan to'lash	Ushbu shakl aksiyadorlarga dividend to'lovlarini summasiga teng tarzda yangi emissiya qilingan aksiyalarni berishni ko'zda tutadi
3	Qayta investitsiyalash	To'lovning bunday shakli aksiyadorlarga yakka tartibda tanlash huquqini beradi
4	Aksiyalarni qayta sotib olish	Aksiyalarning kompaniya tomonidan qayta sotib olinadi

*Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Hozirgi kunda jahoning aksariyat mamlakatlarida dividend to'lovlarining quydai usullari qo'llanilmoqda.

- Sobit dividend to'lovleri yoki barqaror dividend to'lovleri usuli.** Mazkur usulning mazmuni shundan iboratki, qimmatli qog'ozlar qiymati o'zgarishidan qat'i nazar, uzoq vaqt davomida oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lashga yo'naltirilgan sof foydaniing barqaror foizini nazarda tutadi. Inflyatsiyaning yuqori



sur'atlari bo'lgan davrda dividend to'lovlarini miqdori inflyatsiya indeksiga korrektirovka qilinadi. Mazkur usulning afzalligi shundaki, turli vaziyatlarda aksiyadorlarda joriy daromad miqdori o'zgarmasligiga ishonch hissi yaratadi, fond bozorida esa aksiyalarning kurs qiymatini o'zgaruvchanlikdan qochish imkonini beradi.

Ushbu usulning salbiy tomoni kompaniya faoliyatining moliyaviy natijalari bilan zaif aloqada bo'ladi. Shuning uchun salbiy kon'yunktura va joriy yilning daromadining pasayishi davrda korxona investitsiya, moliyaviy va hatto asosiy faoliyat uchun yetarli mablag'ga ega bo'lmashligi mumkin.

- 2. Kafolatlangan minimum va qo'shimcha (ekstra) dividendlarni to'lash usuli.** Mazmun jihatdan sobit dividendlar miqdorini muntazam ravishda to'lashni nazarda tutadi. Bu usulning afzalliklaridan biri bo'lib minimal belgilangan miqdorda dividendlarning barqaror kafolatlangan to'loving mavjudligi, shuningdek, investitsiya faoliyatini kamaytirmagan holda dividendlar miqdorini oshirishi imkonini beradigan moliyaviy natijalar bilan o'zaro aloqada ekanligi hisoblanadi. Uning asosiy kamchiligi shundaki, uzoq muddatli miniml sobit dividendlar to'lash (ayrim davrlarda hech qanday qo'shimcha haq) kompaniya aksiyalarining investitsion jozibadorligini kamaytiradi, boshqa tomonдан ekstra dividendlarni muntazam to'lab borilishi o'z navbatida aksiyadorlarga bo'lgan rag'batlantiruvchi ta'siri kamayadi va bu siyosatning muntazam dividend to'lovleri siyosatidan farqi qolmay qoladi.
- 3. Qoldiq tamoyil bo'yicha dividendlarni to'lash usuli.** Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, dividendlar kompaniyaning barcha asosli investitsiya ehtiyojlarini qondirilganidan so'ng oxirida to'lanadi. Bu usul bo'yicha harakatlar ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi:
 - kapital qo'yilmalarning optimal budgeti tuziladi;
 - budgetni ijro etish uchun zarur bo'lgan kapitalning qiymatini aniqlaydigan moliyalashtirish manbalarining optimal tuzilmasi aniqlanadi;
 - dividendlar faqat investitsiyalarni moliyalashtirish zarur bo'limgan holatda qoldiq foydadan to'lanadi.
- 4. Dividendlarni aksiyalar bilan to'lash usuli.** Aksiyadorlar pul o'rniga qo'shimcha aksiyalar oladi. Ushbu texnikadan foydalanish usullari turlicha bo'lishi mumkin. Kompaniyaning pul bilan muammolari bo'lishi, shuningdek moliyaviy holati beqaror bo'lishi mumkin. Bu usul bilan aksiyadorlar amalda hech narsa olmaganligini tushunish oson, chunki ularga to'laniladigan dividendlar summasi o'z kapitali tarkibida kapitallahsgan mablag'larning qiymatiga teng. Aksiyalar soni ortdi, lekin har bir aksiya uchun aktivlarning qiymati kamaydi. Biroq, bu variant aksiyadorlarni qoniqtiradi, chunki ular zarur bo'lganda pulga sotilishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlarni olmoqdalar.
- 5. Dividendlar barqarorligi indeksini (DSI) hisoblash usuli.** Doimiy ravishda dividend to'laydigan kompaniyalarning aksiyalari investorga joriy daromad olish yoki to'lovlarini qayta investitsiya qilishni kapitalning uzoq muddatli o'sishi bilan birlashtirishga imkon beradi. Dividendlarning barqarorligi indeksi (Dividend Stability Index- DSI) kompaniyaning dividendlarni qanchalik muntazam ravishda to'lashini va ularning miqdorini oshirib borayotganligini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich ikki indeksdan iborat:
 - to'lovlarining barqarorligi (YC);
 - o'sish barqarorligi (GC).

Indeks noldan birgacha bo'lgan qiymatlarni oladi. Agar aksiyalar yetti yildan kam vaqt davomida sotilgan bo'lsa ham, DSI indeksi mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlar bo'yicha hisoblab chiqiladi. Biroq, bunday aksiyalar indeksi DSI=1 ga teng bo'lmaydi, chunki bunga dividendlarni barqaror to'lash va oshirish bo'lgan bilan ham belgilangan 7 yil muddat to'lmaganligi sabab bo'ladi. DSI indeksini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$DSI = (YC + GC) / 14 \quad (1)$$

Bu yerda: YC – oxirgi tugallangan yetti yil ichida dividendlarni to'lashning ketma-ket yillari uchun ballar yig'indisi; GC – dividendlarni ketma-ket oshirish yoki oxirgi tugallangan yetti yil ichida ularning darajasini minimum saqlab qolish uchun ballar yig'indisi.

Mazkur usul bo'yicha ballarni berish tartibi quyidagichdir. YC ballining belgilanishida aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lashning har bir davriy yili (ketma-ketligi) uchun emitentga bir ball beriladi. GC ballining belgilanishida aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash miqdorining ko'paytirilishining har bir ketma-ket yili (davomiyligi) uchun bir ball beriladi. Har ikkala indeks uchun ham ko'rib chiqilayotgan davr oxirgi tugallangan yetti yil bo'lib hisoblanadi.



Quyidagi jadvalda DSI indikatorining qiymat chegaralari xususiyatlari keltirilgan.

2-jadval: DSI indikatorining qiymat chegaralari xususiyatlari*

Nº	DSI ko'rsatkichi	Qiymat chegaralarining xususiyatlari
1	DSI=1	Aksiya bo'yicha dividend to'lovlar oxirgi 7 yilda ko'tarilgan
2	DSI>0,57	Doimiy dividend to'lovlar ko'tarilish tendensiyasiga ega
3	DSI=(0,36-0,56)	Doimiy dividend to'lovlar pasayish tendensiyasiga ega
4	DSI<0,36	Dividend to'lovlar doimiy emas yoki qisqa tarixga ega
5	DSI=0	Dividend to'lovlar tarixi mavjud emas yoki to'xtatilgan

* Ma'lumotlar asosida muallif ishlansmasi

Agar aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash miqdorining yillar kesimida o'zgarmasligi holati kuzatilsa, har bir ketma-ket yili (davomiyligi) uchun 0,5 ball beriladi. Dividendlarni to'lash miqdorining yetti yil ichida faqat bir marta o'tgan yilga nisbatan 7 foizdan kam bo'limganligi holati kuzatilsa, barqarorlik holati saqlangan deb hisoblanadi hamda 0,5 ball beriladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida dividend siyosati bilan bog'liq tendensiyalar va ularni tahlil qilinganda, quyidagilarni keltirish mumkin:

Aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosatini belgilashda asosan, rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan siyosat tanlanilayotganligini ko'rish mumkin. Ma'lumki, endigina rivojlanib borayotgan bozorlarida investorlar asosan to'lanadigan dividendlar miqdoriga emas, balki kompaniya kapitallashuvining o'sish istiqbollariga yo'naltirilgan siyosatni ma'qul ko'rishadi.

Dividend uchun to'lanayotgan mablag' miqdori dividend siyosatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, bank aksiyadorlarining manfaatlarini iqtisodiy jihatdan himoya qilish va bank aksiyalari bahosining oshishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, bank tomonidan oqilona dividend siyosatining yuritilishi uning kapital bazasini mustahkamlashga, kapitalni samarali boshqarishga va tijorat bankingin moliya bozoridagi mavqeini ko'tarishga xizmat qiladi.

Bank hisobot davrining yakuni bo'yicha olgan ma'lum miqdordagi foydasini barcha zarur maqsadlarga qilingan ajratmalardan so'ng, aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qaroriga muvofiq, oddiy va kumulyativ imtioyli aksiyalar bo'yicha dividend to'lashga yo'naltiradi. Demak, dividendlar sof foyda hisobidan to'lanadi va bank moliyaviy-xo'jalik faoliyatida sof foydaning yuzaga kelmasligi dividendlarning to'lanmasligiga va uning oqibatida bank aksiyalarining bozor bahosining pasayishiga sabab bo'ladi.

Aksiyalarga to'lanadigan dividendlar miqdori o'z navbatida, rivojlangan bozorlarda kompaniyaning qimmatli qog'ozlari qiymatida kamroq o'zgarishlarga ega bo'lgan sharoitlarda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan dividendlarga yo'naltiriladigan sof foydaning ulushi asta-sekin o'sib bormoqda, ammo dividend rentabelligi pastligicha qolmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida ikkilamchi moliya bozorining rivojlanmaganligi tijorat banklari jami kapitali tarkibida emission daromadlarning shakllanmayotganligiga sabab bo'lmoqda. Demak, barqaror dividend siyosatining olib borilishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan bo'lgan "dividend to'lovining miqdori ikkilamchi moliya bozorining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqidir. Mazkur holat tijorat banklarining kapitalini samarali boshqarish va uning tarkibini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi" [10].

Dividend siyosati bo'yicha qaror qabul qilishda tijorat banklarining likvidliligi muhim ahamiyatga ega. Chunki dividend uchun to'lanayotgan summa to'g'ridan to'g'ri bank kapitalini kamayishiga olib keladi. Ma'lumki, to'lanayotgan dividend summasi tijorat bankingin taqsimlanmagan foydasiga ta'sir qiladi, taqsimlanmagan foya o'z navbatida, bankning birinchi darajali kapitalining asosiy elementi hisoblanadi.

2020-2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasiga asosan xalqaro moliya institutlari ko'magida "Ipoteka-bank" ATIB, "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "Asakabank" AJ, AT "Aloqabank", "Qishloq qurilish bank" ATB va "Turonbank" ATB dagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, bunda birinchi bosqichda ularni institutsional o'zgartirishni (faoliyatini transformatsiya qilish), ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalari paketini sotish mo'ljallanayotgan bir vaqtida qo'yilgan vazifaning samarali ijrosi ham banklar dividend siyosatiga bevosita bog'liq. Chunki muntazam dividend to'lab kelayotgan banklar aksiyalari shunchalik tez o'z egalarini topadi [11].

Quyidagi jadvalda esa O'zbekiston Respublikasining ayrim tijorat banklari bo'yicha dividend berish dinamikasini ko'rish mumkin.



3-jadval: O'zbekiston Respublikasining ayrim tijorat banklari bo'yicha dividend berish dinamikasi*

№	Tijorat banklari	Yillar**						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	Oriyent Finans bank	700	1 701	517,51	486,80	525	352	485
2	Invest Finans bank	-	57,68	89,47	-	-	175	50
3	Asakabank	7,92	2,94	2,06	-	-	-	-
4	O'zsanoatqurilishbank	-	0,38	0,63	-	-	-	-
5	Ipotekabank	0,08	0,06	0,08	-	-	-	-
6	Universalbank	400	800	135	-	-	392	-
7	Hamkorbank	-	-	-	-	-	-	-
8	Turonbank	-	18,59	23,29	-	-	-	28,61
9	Kapitalbank	-	-	-	-	768,25	-	-

* Ma'lumotlar asosida mualif ishlanmasi

** Dividend bir dona oddiy aksiyaga so'mda ko'rsatilgan

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadi, dividend to'lovlar bo'yicha respublika tijorat banklarining aksar qis-mida ularning reinvestitsiyaga yo'naltirilganligi ma'lum bo'limoqda, bundan tashqari, standart kreditlar bo'yicha zaxira sifatida qoldiradi. ATIB Ipoteka-bank tomonidan to'langan dividend to'lovlar to'g'risidagi ma'lumot qu-yidagi jadvalda keltirilgan.

4-жадвал: ATIB "Ипотека-банк" томонидан дивиденд тўловларининг амалга оширилиши*

№	Ko'rsatkichlar	Dividend to'lovlarining amalga oshirilishi						
		2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
1	Pul ko'rinishida hisoblangan dividendlar (so'm hisobida), sh. j.							
	Oddiy aksiyalarga	0,08	0,06	0,08	-	-	-	-
	Imtiyozli aksiyalarga	0,25	0,25	0,25	0,25	0,25	0,25	-
2	Kapitalizatsiya ko'rinishida hisoblangan dividendlar (so'm hisobida), sh. j.	-	-	-	-	-	-	-
3	Aksiyalarning nominal qiymati (so'm)	1	1	1	1	1	1	1

* Ma'lumotlar asosida mualif ishlanmasi

Ma'lumotlardan ko'rindaniki, 2016-yilgacha mazkur bank aksiyalarining nominal qiymati 2010-yilgacha 1000 so'mdan, 2011-yildan 2015-yilga qadar 1360 so'mdan 3578 so'mgacha bo'lgan. 2017-yil 29-mayda olingan sof foyda hisobidan aksiyalarni maydalash yo'li bilan kapitalizatsiya amalga oshirilgan hamda aksiyalarning qo'shimcha miqdori chiqarilgan. Bu 3578 dona aksiyaga 448 donadan aksiya qo'shilganligidan dalolat beradi [12].

Milliy va xalqaro amaliyotda tijorat banklarining aksiyadorlik jamiyati sifatida tashkil etilishi va faoliyat yuritishlari ularning qimmatli qog'ozlar bozorining faol ishtirokchisi ekanligidan dalolat beradi. Tijorat banklari amal-dagi tartiblar asosida qimmatli qog'ozlar bozorida birinchi navbatda emitent sifatida, so'ngra investor va vosi-tachi sifatida ishtirok etadi. Qimmatli qog'ozlar emitenti sifatida har qanday aksiyadorlik jamiyati investorlarni daromad bilan ta'minlashi lozim.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Aksiyalar emitenti sifatida banklar o'z aksiyadorlariga muntazam ravishda dividendlar to'lab borishi istiqbolda qo'shimcha aksiyalar emissiyasi orqali kapitallashuv darajasini oshirib borishga, bozordagi nufuzi oshib borishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan dividend siyosatiga jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi. Umumiyl holda, oqilona dividend siyosati tijorat banklari uchun quyidagi ustuvorliklarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

O'rganishlar asosida, dividend siyosati orqali tijorat banklari erishishi mumkin bo'lgan ustuvorliklarni quyidagicha kengroq asoslash mumkin:

- birinchidan, qarz kapitali nisbatan qimmat sharoitda muntazam dividendlar to'lab borilishi qo'shimcha aksiyalar emissiyasi orqali arzon kapital jalb qilishga imkon beradi. Boshqa tomonidan muntazam dividend qo'shimcha emissiya qilingan aksiyalarni nominaldan yuqori narx diapazonida joylashtirishga



asos bo'lib xizmat qiladi va qo'shilgan kapital miqdorining oshib borishini ham ta'minlaydi. Mazkur jihat asosida oxir-oqibat moliyaviy resurslardan samarali foydalanilsa banklarning faoliyat doirasining ken-gayishib borishiga erishish mumkin bo'ladi.

- ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari sifatida tijorat banklari turli manbalardan kapital jalb qilish imkoniyatiga ega. Bunda barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish resurs bazalari diversifikatsiya darajasini oshiradi. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotda tijorat banklari tomonidan barcha manbalardan samarali foydalanilmogda, deyish qiyin. Shu sababli ham qarz manbalari hisoblangan omonat va depozitlar jalb qilish, korporativ obligatsiyalar joylashtirishga qo'shimcha ravishda resurs bazasi imkoniyatlarini oshirish nuqtai nazaridan qo'shimcha aksiyalar emissiyasi va ularni ochiq joylashtirish banklar resurs bazasining optimallashuviga xizmat qiladi. Buning uchun esa dividend siyosatini takomillashtirish talab etiladi.
- uchinchidan, banklarning oqlona dividend siyosati va muntazam har yili dividendlar to'lab borishi investorlar va keng jamoatchilik uchun tekin reklama vazifasini o'tab beradi. Shuningdek, dividendlar haqida muntazam e'lolar bozordagi nufuzning ham muntazam oshirib borish va investorlarning keng doiradagi qiziqishlariga olib keladi. Natijada esa aksiyalar kurslarining o'sishi ham ta'minlanadi.
- to'rtinchidan, muntazam dividendlar orqali aksiyalarga bo'lgan investorlarning qiziqish doirasini oshirish, o'z navbatida tijorat banklari tomonidan o'z aksiyalarini ommaviy joylashtirish imkoniyatlarini ham oshiradi. Aynan milliy va xalqaro IPO o'tkazish uchun aksiyalar investitsion jozibadorligi nihoyatda muhim. Bunda esa muntazam dividendlar to'lab borish bo'yicha bank siyosati yuritilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.
- beshinchidan, tijorat banki yoki har qanday aksiyadorlik jamiyati tomonidan dividend to'lab borilmasa, investor tomonidan egaligidagi aksiyalardan tezroq qutilishga harakat qiladi. Bunday sharoitda faoliyatini kengaytirish maqsadida boshqa subyektlarni, xususan banklarni qo'shib olishga intiladigan subyektlar uchun qulay imkoniyat tug'iladi. Natijada birlashishlar va qo'shib olishlar bozorida boshqa banklar tomonidan dividendlarga e'tibor qaratmagan banklarni qo'shib olish amalga oshirilishi mumkin, bunda bank o'z mustaqilligini yo'qotadi va qo'shib oluvchi bank tomonidan yutib yuboriladi. Muntazam dividendlar esa har qanday qo'shib olishdan himoya vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Raqamlı O'zbekiston-2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni.
2. Miller, M. H., Rock, K. Dividend Policy under Asymmetric Information // The Journal of Finance. Vol. 40. – № 4. – P. 1031–1051.
3. Gordon, M. J. Optimal investment and financing policy // The Journal of Finance. –Vol. 18. – № 2. – P. 264–272.
4. Lintner, J. (1956). Distribution of Incomes of Corporations among Dividends, Retained Earnings, and Taxes // The American Economic Review. –Vol. 46. – № 2. – P. 97–113.
5. Lepetit, L., Meslier, C., Strobel, F., Wardhana, L. (2018). Bank dividends, agency costs and shareholder and creditor rights. // International Review of Financial Analysis. Volume 56. – P. 93–111
6. Miller, M. H., Rock, K. (1985) Dividend Policy under Asymmetric Information // The Journal of Finance. Vol. 40. – №4. – P. 1031–1051.
7. Федорова Е. А., Лукасевич И. Я. Теории дивидендной политики и их развитие на примере Российского рынка // Финансы и кредит № 19 (595). – 2014. – С. 2.
8. Elmirzayev S. E. Dividend siyosati tashkiliy xususiyatlari va takomillashtirish masalalari. // Xalqaro moliya va hisob. №2, 2016.
9. Sherqo'ziyeva N. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruv tizimida dividend siyosatining o'rni. // Xalqaro moliya va hisob. №3, 2019.
10. Temirov A. A. Dividendlar va dividend siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: Innovatsion rivojlanish matbaa-nashriyot uyi, 2021. – 160 b.
11. Kudratov S. R., Nazarova M. N. Banklarda korporativ boshqaruv. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisodiyot", 2019. – 141 b.
12. <https://www.ipotekabank.uz/about/>

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.